

KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Muxtorova Madina

G‘ijduvon pedagogika kolleji o‘qituvchisi

Maktabgacha ta‘limda o‘tkaziladigan har qanday ta‘limiy faoliyatni didaktik o‘yinlar orqali tashkil etish, pedagog boshchiligida qo‘llanilayotgan ta‘lim usullari kichik guruhdan o‘rta guruhga, undan katta va maktabga tayyorlov guruhlariga o‘tish asosida o‘zgarib, murakkablashib boradi. Bu jarayonda didaktik o‘yinlarni, ta‘lim usullaridan foydalangan holda qo‘llash pedagogning kreativ kompetentligi va mahorati darajasiga bog‘liq holda tarkib topib boradi. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib aytishimiz mumkinki, inson miyasining 30 foizini vizual, 3 foizini audial ta‘minlovchi neyronlar tashkil etadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalari nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar orqali bilimlarning 85 foizini ko‘rish reseptorlari yordamida o‘zlashtirish imkoni mavjud. Bolalarda kechadigan tafakkur jarayonining analiz va sintez qilish jarayonini ya‘ni predmetning tashqi ko‘rinishi, ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma‘lumot olish qulayligini nazarda tutgan holda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari o‘qitish tizimida keng foydalaniladi²⁴.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o‘stirish faoliyatlari asosida tafakkurini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Masalan: narsalar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo‘lavermaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun‘iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan “Hayvonot bog‘ida”, turli ko‘kat o‘simliklar bilan “Issiqxonada”, sabzavotlar bilan “Dalada”, mevalar bilan “Bog‘da” nomli suyjetli suratlar orqali tanishish) yoki sun‘iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj va boshqalar)dan foydaniladi. Mazkur jarayon texnologik ta‘lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Pedagogning ijodkorligi didaktik o‘yinlarni tashkil qilish jarayonida muhimdir. Chunki ularning ijodkorligi pedagogik voqelikni tez o‘zlashtirishlari, unga nisbatan kreativ yondashishlarini ta‘minlaydi. Shundan kelib chiqib biz O. Musurmanovning pedagogik texnologiyalar – ta‘lim samaradorligi omili degan ta‘limotiga asoslanib

²⁴ G‘oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): O‘quv qo‘llanma - T.:O‘qituvchi, 1994. – 70 b.



ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tamoyillarni umumpedagogik va xususiy tamoyillarga bo'lib o'rgandik²⁵.

Umumpedagogik qoidalar:

ilmiylik;

ketma-ketlik;

sistemalilik;

ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganlik;

ko'rgazmalilik;

ta'lim va tarbiyaning birligi;

nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;

insonparvarlik;

ta'lim va tarbiyaning bolalar yosh psixologik xususiyatlariga mosligi;

bola shaxsini hurmat qilish;

pedagogik hamkorlik;

Xususiy qoidalar:

ijodkorlik, tashabbuskorlik;

ta'lim va tarbiya jarayonini oldindan loyihalash;

uzviylik va uzluksizlik;

sub'ekt-sub'ekt munosabatlarning ustunligi;

ilmiy yutuqlar, ilg'or tajribalar, pedagogik g'oyalar yaxlitligi;

qiziqarlilik, faollik;

natijaning ustuvorligi, kafolatlilik; motivasiyaning yuqoriligi²⁶.

Birgalikdagi faoliyat- maktabgacha yoshdagi bolalar va pedagog o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shaklidir. Yuqoridagi tamoyillarga asoslanib katta va maktabga tayyorlov guruhi o'quv biluv faoliyatini tashkil etishda bir o'quv-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonida bir necha tamoyillardan foydalaniladi, quyidagi didaktik talablarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. didaktik o'yinlar ta'lim va tarbiya vazifalariga muvofiq tanlanishi kerak; tanlangan o'yinning dastur talablariga muvofiqligini belgilash va ma'lum yosh guruhidagi bolalarni o'qitish;

2. pedagog didaktik o'yinlar maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'rganilishi rejalashtirilayotgan bilim va shakllantirilishi nazarda tutilayotgan ko'nikmalarning bolalardagi mavjud tajribalar bilan aloqadorligini ta'minlashi lozim;

²⁵ Kamalakning yetti jilosi. Ota-onalar uchun uslubiy qo'llanmalar to'plami (7 kitobdan iborat). –T.: Viking, 2016.

²⁶ Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2017. – 386 b.



3. bolalar nutq va tafakkurini rivojlantirish uchun o'yin davomida tarbiyachi bolalarni tinglashi va ko'rsatmalar berilishi zarur bolaning tashabbusini ma'qullashi;

4. qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib didaktik o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda izchil, tanlov tamoyili asosida bo'lishi. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subektivlikni rivojlantirish qobiliyatlarini namoyon qilishi mumkin emas.

1. o'tkazilgan o'yinning tahlili uni tayyorlash va amalga oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan: qo'yilgan maqsadga erishishda qaysi usullar samarali bo'ldi, nima o'xshamadi va nima uchun. Bundan tashqari tahlil bolalarning xulq atvori va xarakteridagi individual xususiyatlarni aniqlash va ular bilan individual ishni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

O'yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiyasida o'yinlarga quyidagicha izoh berilgan. O'yinlar va o'yin kulgi bolalar salomatligi va faravonligi uchun juda muhimdir va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi²⁷. Ular ta'limning barcha jihatlariga hissa qo'shadilar: o'yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo'lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.


Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri "Ijodkor bolani" tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin katta ahamiyatga ega. Aynan o'yinda bola ijodiy faoliyatning dastlabki qadamlarini qo'yadi. Kattalar nafaqat bolalar o'yinini tomosha qilishlari, balki uning rivojlanishini boshqarishlari, boyitishlari, o'yinga ijodiy elementlarni kiritishlari kerak. O'yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi va borliqni o'zlashtirish vositasi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Maftunkorlik
2. Kommunikativlik
3. O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
4. Tashxis
5. O'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot
6. Ijtimoiylashuv

O'yinlar orqali bolalar o'z menini baholash, o'z xatti-harakatlariga baho berish, gender mansubligini anglash (o'g'il va qiz bolalarga xos xususiyatlar, milliy urf -

²⁷ I.V.Grosheva va boshq. O'yin orqali ta'lim olish. Metodik qo'llanma. – Toshkent.: MTV, 2021. B.12.





odatlar, ijobiy va salbiy his tuyg'ular, yaxshi va yomon xulqlarni farqlovchi o'yinlar), bolalarga o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini anglash, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda turli murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llari, muammoli holatlarda o'zini tutish va muammoni oson hal qilish, bolalarni ahillashtiruvchi, jamoaga uyushtiruvchi va rivojlantiruvchi o'yinlarni tanlash orqali tarbiyachi bolalarda nutqni va tafakkurni ham rivojlantiradi. Shuning uchun aynan o'yinlar bolalarning ijtimoiylashishiga yordam beruvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Maishiy mazmundagi syujetli-rolli o'yinlar ya'ni, "Oilamiz do'sti", "Do'stlarim mening uyimda", "Bayramlar", "Tug'ilgan kun", "Sayrga chiqamiz", "Bog'chamagi do'stlarim", "Dam oilsh kuni", "Hashar", "Tushlik", "Mehmon kutamiz" kabi mavzular bo'yicha o'yinlarni tanlash bolalarda katta qiziqish uyg'otish bilan birga nutqning tovush madaniyatini, gramatik qurilishini o'z fikrini ifodalashni tarbiyalaydi.


Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda bolaning muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, narsa buyumlardan foydalanish boladan faol nutqqa ega bo'lishni talab qiladi. Katta guruh yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan o'yinli jarayonda "Topchi nima yetishmayapti", "Siz nima qilishni xoxlaysiz" turkumidagi savol va muammoli vaziyatlarni yaratish orqali bu vazifalarni hal etishda bola bilan og'zaki muloqotni ta'minlashi lozim.

Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. To'rt-besh yoshda rolli o'yin shakllana boshlaydi, bu tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng keng imkoniyatlarni beradi. Syujetli rolli o'yinlarni tashkil qilishda tarbiyachining roli juda kata. Rolli o'yihlarni tashkil qilar ekan tarbiyachi bolalarga o'yin mohiyatini tushuntiradi bolalarning fikrlari bilan ham o'rtoqlashishi zarur, ana shundagina bolalarda ijodiy fikrlash, mantiqiy yondashish, muammoga yechim topish, fantaziya rivojlanadi. Agar bolalar har kuni bir xil "mehmom- mehmon " yoki urush o'ynashsa, tarbiyachi ularga o'yinlarning syujetlarini diversifikatsiya qilishni o'rganishga yordam berishi kerak. Tarbiyachi ular bilan o'ynashi mumkin, turli rollarni o'ynashni taklif qilishi mumkin.

Interaktiv doska orqali namoyish etilgan joylar – dengiz, tog'lar peyzaji, turli shaharlar, fantastik syujetlar bo'yicha tashkil qilinadigan o'yinlar esa bolalarda fantaziyaning rivojlantiribgina qolmay, chunonchi, mantiqiy fikrlashni hamda psixik bilish jarayonlari ham rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'yinlar kutilmagan va faol jarayon bo'lib, unda tafakkur, his-tug'ular va harakatlar rivojlanadi. O'yin orqali bola tafakkuri





va nutqini o‘stirish hamda so‘zlashishga o‘rgatuvchi o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bolalar nutqi va tafakkurini oshiruvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Har bir bola shaxsi shakllangan salohiyatga ega, o‘yin uning takomillashuviga yordam beradi. Bolalarning bir-biri bilan yaxshi va samarali munosabatlarni hamda birgalikdagi o‘yin faoliyatida hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi kun tarbiyachisining asosiy maqsadi hisoblanadi. O‘yinlar bolalarning muzokara qilish, hissiy muvozanatni tiklash, nizolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kognitiv munosabatda o‘yin xotira, tasavvur, konsentratsiya va ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Shuningdek didaktik o‘yinlar bolalarning ko‘rgazmaviy va mantiqiy tafakkuri, ixtiyoriy anglash diqqati, xotira ijodiy tasavvurning rivojlanishi sodir bo‘ladi. Didaktik o‘yin mazmuni va maqsadi bolalarga ma‘lim bilim va ko‘nikmalar berish, ularning aqliy qobiliyatlari bilan birgalikda tafakkur jarayonlarini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2016 yil 29 dekabr PF - 2707 –sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528-son Qarori // www.lex.uz. 2017
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–5198-sonli Farmoni.
5. Kayumova N.. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2013. – 184 b
6. Muslimov N.A. va boshq. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015 –120 б.
7. Mavlonova R.A.va boshq. Umumiy pedagogika . - T .: « Fan va texnologiya», 2018, 528 b.
8. Mirhayitova S.I. Pedagogik texnologiya. Toshkent-2020. – 200 b.

